TOSHKENT VILOYATI YANGIYO`L SHAHAR HOKIMI
QARORI

2021 - yil 28 - oktabr 116-10-196-Q/21 Yangiyo‘l shahar hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini 2020-yil uchun band qilib qo'yish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida“gi Qonunning 6, 25-moddalariga asoslanib, qaror qilaman:

1.O'zbekiston Respublikasining “Aholi bandligi to'g'risida”gi Qonunning 38, 39-moddalariga asosan aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifalarini ishga joylashtirish bo'yicha shahardagi korxona tashkilotlar va muassasalar uchun xodimlarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha sonidan 276 kishini tashkil etadigan 5,2 foiz miqdorda, shu jumladan:

- o'n to'rt yoshga to'lmagan bolalari, nogironligi bo'lgan bolalari bor yolg'iz otaga yoki onaga, shuningdek ko'p bolali oilalarning ota-onalar uchun 21,7 foiz - 60 kishi;

- umumiy o'rta va o'rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo'lgan yoshlar uchun 62,3 foiz-172 kishi;

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining,

Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo'shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun

- 4,3 foiz - 12 kishi;

- nogironligi bo'lgan shaxslar uchun 3,2 foiz - 9 kishi;

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 3,6 foiz - 10 kishi;

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko'ra o'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralari qo'llanilgan shaxslar uchun 4,3 foiz - 12 kishi;

- odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,4 foiz - 1 kishi miqdorida ish o'rinlari zaxirasi belgilansin.

2. Yangiyo'l shahar bo'yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarini 2022-yil uchun band qilib qo'yish lozim bo'lgan korxona, tashkilot, muassasalar ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Korxona, tashkilot va muassasalar rahbarlariga:

- Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ish bilan ta’minlash uchun 2021-yil 31-dekabr kuniga qadar kvota ish joylari umumiy miqdorining kamida 25 foizi, 2022-yil 10-aprel kunidan kechikmay ish joylarining qolgan qismi 75 foizini barpo etish (ajratish yoki band qilib qo'yish) to'g'risidagi, ya’ni har bir kvota toifasi bo'yicha ish o'rinlari band qilib qo'yiladigan kasblar va lavozimlar, mutaxassisliklar kesimidagi ma’lumotlarni va qaror bo'yicha chiqarilgan buyruq nusxalarini shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

- Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish joylarini ko'rsatib o'tilgan miqdorini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq belgilangan muddatlarda va tartibda yaratilishini (ajratilishini yoki band qilib qo'yilishini) hamda ish joylari sanitariya gigiyena normalariga va xodim o'z majburiyatlarini to'siqlarsiz bajarilishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga muvofiq bo'lishini ta’minlasinlar.

4. Ushbu qaror ijrosi bajarilmagan taqdirda korxona, tashkilot va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan O’zbekiston Respublikasining

2020-yil 18-avgustdagi 642-sonli “Aholi bandligi to'g'risida”gi qonunining 41-moddasiga muvofiq tegishli tartibda javobgarlik masalasi hal etilsin.

5. “Aholi bandligi to'g'risida”gi Qonunga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishga qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo'yilgan ish o'rinlarini shahar hokimi tomonidan belgilangan sonidan ortiqcha zaxiraga qo'yiladigan ish o'rinlari tashkil etgan tashkilotlarga ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqa chora-tadbirlar uchun yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni birinchi navbatda ajratish orqali o'z vakolatlari doirasida imtiyozlar belgilash huquqiga ega ekanliklari inobatga olinsin.

6. Shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi (A.Xajiyev) bir hafta muddatda mazkur qarorini tegishli korxona, tashkilot va muassasalar rahbariga yetkazsin hamda uning bajarilishini ustidan nazoratni ta’minlasin.

7. “Yangiyo'l” ro'znoma bosh muharriri (A.Rixsiboyev) ushbu qaror matnini “Yangiyo'l” ro'znomasida chop etilishini ta’minlasin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan shahar hokimining 2020-yil 24-avgust kunidagi 212-sonli qarori 2022-yil 1-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari E.Abduvaliyev zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **F.Mirzayev**

Янгийўл шаҳар ҳокимининг
2021 йил 28 октябрдаги
116-10-196-Q/21-сон қарорига
1-илова

Ижтимоий муҳофазага мухтож ва иш топишда қийналаётган шахсларни ишга жойлаштириш учун иш ўринларини 2021 йил учун банд қилиб қўйиш тўғрисида

КВОТА ИШ ЎРНИ БЕЛГИЛАНГАН ХОКИМ ҚАРОРИДАГИ КОРХОНА ТАШКИЛОТ НОМИ	Уларда ишловчилар сони	2021 йил учун квота иш ўринлари режаси йиллик	Ёлғиз ота оналар хамда 14 ёшгача ва ногирон болаликда	талим муассасаларини тугатган ёшлар	муддатли харбий хизматдан бўшатилганлар	ногиронлар	пенсия ёшига яқинлашиб қолганлар	жазони ўташ муассасаларидан бўшатилганлар	одам савдосидвн жабирланганларни иш билан таминлаш
1 МТМ	35	3	1	2					
2 МТМ	25	2		2					
3 МТМ	41	4	1	3					
4 МТМ	30	3		3					
5 МТМ	32	3		3					
6 МТМ	48	4	2	2					
7 МТМ	39	3	1	2					
8 МТМ	35	3		3					
9 МТМ	59	5	1	4					
10 МТМ	35	3	1	2					
11 МТМ	38	3		3					
12 МТМ	73	6	2	4					
13 МТМ	55	4	1	3					
14 МТМ	29	2	1	1					
1 МАКТАБ	88	3	1	2					
2 МАКТАБ	79	4	1	3					
3 МАКТАБ	117	5	2	2			1		
4 МАКТАБ	76	4	1	2			1		
5 МАКТАБ	149	6	1	5					
6 МАКТАБ	154	7	1	4	1		1		

7 МАКТАБ	88	4	1	3					
8 МАКТАБ	62	3	1	2					
9 МАКТАБ	104	5		4			1		
10 МАКТАБ	150	6	1	4			1		
12 МАКТАБ	39	2		2					
БЎСМ	40	2		2					
Маданият ва санат мактаби	41	2		2					
Янгийўл шаҳар Аграр технологиялари техникуми	26	2		2					
1-сонли касб хунар мактаби	70	5		4	1				
Маданият бўлими	28	2		2					
ОАТБ Ипак йули банк	58	2		2					
Агро банк	40	2		2					
Миллий банк	49	2		2					
Халк банк	76	3	1	2					
ДСЭНМ	58	4		2		1		1	
Тиббиёт бирлашмаси	1078	56	20	30	3	2	2		
Ёғ мой	563	10	4	4	1	1			
Тоза худуд ДУК	45	4				2		2	
"Fashion jeans Garment" МЧЖ	250	20	4	12	1		1	1	1
Ватанпарвар	41	4	1	2	1				
BIOKIMYO OAJ	336	9	2	6	1				
Ободонлаштириш бўлими	165	15	2	2		2	1	7	
YANGIYOL POLIGRAF SERVIS	150	6	1	4	1				
Сувоқава	160	11	2	5	1	1	1	1	
"welltex "МЧЖ	72	6	1	5					

Мастер Глобал Плюс МЧЖ	**192**	**7**	**1**	**5**	**1**				
Почта	**31**	**2**		**2**					
Алюкабел пайров	**35**	**3**		**3**					
жамии	**5284**	**276**	**60**	**172**	**12**	**9**	**10**	**12**	**1**